

---

## **Sotsiolingvistik tadqiqotlarda xushmuomalalik va yolg'onning nazariy tushunchalari (ispan tili materiallari asosida)**

**Tursunova Parvina Mamurjonovna**

[p.tursunova@gmail.com](mailto:p.tursunova@gmail.com)

Assistent-o'qituvchi,

"Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti

**Annotatsiya** *Mazkur maqolada sotsiolingvistika doirasida xushmuomalalik va yolg'onning nazariy tushunchalari keng yoritiladi. Xushmuomalilik nazariyasi (B. Braun va J. Levinson modeli) hamda yolg'onning kommunikativ strategiya sifatidagi o'rni ispan tili materiallari asosida tahlil qilinadi. Ispan madaniyatida keng uchraydigan "mentira piadosa" (oq yolg'on) fenomeni, shuningdek, bilvosita ifoda, eufemizm va yumshatish kabi xushmuomalilik strategiyalari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, yolg'on va xushmuomalilik muloqotda ijtimoiy muvozanatni ta'minlash, mojaro oldini olish va ijobiy ijtimoiy muhit yaratishda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi.*

**Kalit so'zlar** *Sotsiolingvistika, xushmuomalalik, yolg'on, pragmatika, ispan tili, "mentira piadosa"*

---

## **Теоретические понятия вежливости и лжи в социолингвистических исследованиях (на материале испанского языка)**

**Турсунова Парвина Мамурджонова**

[p.tursunova@gmail.com](mailto:p.tursunova@gmail.com)

Ассистент-преподаватель,

Международный университет туризма и культурного наследия «Шёлковый путь»

**Аннотация** *В статье рассматриваются теоретические понятия вежливости и лжи в рамках социолингвистики. На материале испанского языка анализируется теория вежливости (модель Б. Браун и Дж. Левинсона), а также роль лжи как коммуникативной стратегии. Особое внимание уделено феномену «mentira piadosa» (благородная ложь), а также таким стратегиям, как эфемизация, косвенное выражение и смягчение. Результаты исследования показывают, что ложь и вежливость функционируют как средства обеспечения социального равновесия, предотвращения конфликтов и создания позитивной атмосферы в общении.*

**Ключевые слова** *Социолингвистика, вежливость, ложь, прагматика, испанский язык, «mentira piadosa»*

---

## **Theoretical Concepts of Politeness and Lies in Sociolinguistic Research (Based on Spanish Language Material)**

**Tursunova Parvina Mamurjonovna**

[p.tursunova@gmail.com](mailto:p.tursunova@gmail.com)

Assistant-lecturer,

"Silk Road" International University of Tourism and Cultural Heritage

**Annotation** *This article explores the theoretical concepts of politeness and lying within the framework of sociolinguistics. Based on Spanish language data, the study analyzes the politeness theory (Brown & Levinson's model) and the role of lying as a communicative strategy. Special attention is given to the phenomenon of "mentira piadosa" (white lie), as well as to strategies such as euphemization, indirect speech, and mitigation. The findings suggest that lying and politeness function as key tools for maintaining social balance, preventing conflicts, and fostering positive communicative interaction.*

**Keywords** *Sociolinguistics, politeness, lie, pragmatics, Spanish language, "mentira piadosa"*

Til nafaqat muloqot vositasi, balki ijtimoiy munosabatlarning muhim ko'rsatkichi sifatida ham o'rganiladi. Sotsiolingvistika doirasida nutq jarayonida yuzaga keladigan xushmuomalalik va yolg'on hodisalari alohida e'tiborga loyiq. Chunki ular tilning ijtimoiy funksiyalarini, ya'ni insonlar o'rtasidagi hamkorlik, ijtimoiy maqom va munosabatlarni qanday shakllantirishini ochib beradi.

Xushmuomalalik nazariyasi tilshunoslikda XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab keng tadqiq etila boshlagan bo'lib, u insonlar o'rtasidagi nutqiy aloqada hurmat, ehtirom va ijtimoiy masofani saqlashning muhim vositasi sifatida izohlanadi. Yolg'on esa, aksincha, kommunikatsiyaning axloqiy va ijtimoiy jihatlar bilan bog'liq bo'lgan murakkab fenomen bo'lib, ko'pincha nutqiy strategiya va maqsadlarga erishish yo'lida qo'llaniladi. Ushbu ikki tushuncha ko'pincha qarama-qarshi bo'lib ko'rinsa-da, ular bir-biri bilan chambarchas bog'liq holda til va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni yoritib beradi.

Ispan tili materiallari asosida xushmuomalalik va yolg'onning tadqiqi mazkur hodisalarni nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham tahlil qilish imkonini beradi. Chunki ispan tilida ijtimoiy-psixologik omillar, madaniy qadriyatlar va milliy xususiyatlar nutqiy xatti-harakatlarda yaqqol namoyon bo'ladi.

Tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari orasida sotsiolingvistika va pragmatika inson

muloqotidagi ijtimoiy-psixologik omillarni o'rganish bilan ajralib turadi. Xushmuomalilik va yolg'on fenomenlari aynan shu nuqtai nazardan tahlil qilinishi lozim, chunki ular ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi va muloqotni uyg'unlashtiruvchi muhim vositalardir.

Ispan tili materiallari alohida ahamiyat kasb etadi: bu til va madaniyatda xushmuomalilikning ko'p qirralari, shuningdek, ijtimoiy maqbul bo'lgan yolg'onning turli shakllari mavjud. Shu jihatdan, ispan tilidagi misollar asosida mazkur fenomenlarni o'rganish nazariy va amaliy jihatdan dolzarbdir.

Pragmatika va sotsiolingvistika sohalarida B. Braun va J. Levinson (1978) tomonidan ishlab chiqilgan Face Theory muhim nazariy asoslardan biri hisoblanadi. Mazkur nazariyaga ko'ra, inson muloqoti jarayonida shaxsning "yuz" (face) deb ataluvchi ijtimoiy obro'-e'tibori va o'zini hurmat qilish tuyg'usi markaziy o'rin tutadi. Har bir kommunikativ vaziyatda suhbatdoshlar o'z "yuz"ini saqlab qolishga intiladi va nutqiy strategiyalar ham aynan shu ehtiyoj bilan belgilanadi.

Braun va Levinson ikki turdagi "yuz"ni farqlaydi:

Pozitiv yuz – bu suhbatdosh tomonidan ijtimoiy qabul qilinish, ma'qullanish, yoqtirilish va e'tirof etilish ehtiyojini anglatadi. Pozitiv yuzga qaratilgan nutqiy strategiyalar suhbatdoshning ijobiy qiyofasini qo'llab-

quvvatlashga, samimiylik va do'stona munosabatni ta'minlashga xizmat qiladi.

Negativ yuz – bu shaxsning erkinligi, mustaqilligi va shaxsiy hududiga hurmat bilan bog'liq ehtiyojni bildiradi. Negativ yuzni saqlashga qaratilgan nutqiy strategiyalar esa suhbatdoshning tanlov erkinligini cheklamaslik, buyruq va majburlashdan qochish, iltimosni yumshoq shaklda ifodalash kabi xususiyatlarda namoyon bo'ladi.

Braun va Levinson nazariyasida "yuzga tahdid qiluvchi aktlar" (face-threatening acts) alohida o'rin tutadi. Bunday aktlar suhbatdoshning obro'si yoki erkinligiga xavf tug'dirishi mumkin. Shu sababli kommunikatsiya jarayonida shaxslar bunday vaziyatni yumshatish maqsadida xushmuomalalik strategiyalaridan foydalanadilar. Bu strategiyalar qatorida bilvosita nutq, eufemizmlar, muloqotda ijobiy baho berish, shuningdek, ma'lum darajada yolg'on yoki bo'rttirish kabi vositalar ham kuzatiladi. Ispan tili materiallarida xushmuomalilikning ikki asosiy ko'rinishi kuzatiladi: 1) pozitiv xushmuomalilik (yaqinlik, iliqlik, qo'llab-quvvatlash: "Querido amigo..."); 2) negativ xushmuomalilik (yumshatish, bilvosita ifoda: "¿Podría usted...?").

Yolg'on sotsiolingvistika va pragmatika nuqtayi nazaridan qaralganda murakkab kommunikativ hodisa sifatida talqin qilinadi. U nafaqat shaxsiy manfaatlar bilan, balki kengroq ijtimoiy munosabatlar tizimi bilan ham chambarchas bog'liqdir. Shu ma'noda, yolg'on ikki asosiy qirraga ega:

Individuallik jihati. Yolg'onning ushbu tomoni shaxsiy manfaatlarni himoya qilish, o'z "yuz"ini (B. Braun va J. Levinson ta'riflagan ma'noda) saqlab qolish, shaxsiy xatolarni yashirish yoki obro'ni himoya qilish kabi vaziyatlarda namoyon bo'ladi. Bunda yolg'on individual strategiya sifatida qaraladi va suhbatdoshning shaxsiy ehtiyojlari, xavfsizligi yoki psixologik holatini qo'llab-quvvatlashga qaratiladi.

Ijtimoiy jihati. Yolg'onning bu qirradi esa jamiyatdagi uyg'unlikni ta'minlash, ijtimoiy

ziddiyatlarni yumshatish yoki oldini olish bilan bog'liqdir. Ko'plab muloqot vaziyatlarida yolg'on ijtimoiy uyg'unlikni saqlash, mojaroni bartaraf etish yoki boshqa shaxsni ranjitmaslik maqsadida xushmuomalalik strategiyasi sifatida qo'llanadi. Shu bois yolg'onning ijtimoiy vazifasi muloqotni barqarorlashtiruvchi, konfliktni kamaytiruvchi hamda ijobiy munosabatni qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, yolg'onning kommunikativ tabiatini ikki qirrali hodisa sifatida o'rganish uning sotsiolingvistik mohiyatini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi. Yolg'on bir tomondan shaxsiy "yuz"ni saqlashga, ikkinchi tomondan esa ijtimoiy uyg'unlikni ta'minlashga xizmat qilishi bilan kommunikativ jarayonda muhim funksional ahamiyat kasb etadi.

Ispan madaniyatida keng tarqalgan "mentira piadosa" (oq yolg'on) suhbatdoshni ranjitmaslik yoki ijtimoiy muvozanatni saqlash uchun odatiy nutqiy strategiya hisoblanadi.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, yolg'on ko'pincha xushmuomalilik strategiyasining bir shakli sifatida namoyon bo'ladi. Bu holat suhbatdoshning "yuz"ini saqlash, muloqotdagi uyg'unlikni ta'minlash va ijtimoiy ziddiyatlarni kamaytirishga qaratilgan nutqiy vosita sifatida izohlanadi. Ispan tili materiallari misolida yolg'onning quyidagi shakllari aniqlanadi:

- *Rad etishni yumshatish.* Suhbatdoshga to'g'ridan-to'g'ri "yo'q" demasdan, uni bilvosita va muloyim shaklda ifodalash: "Quizás en otro momento..." ("Ehtimol boshqa safar..."), aslida esa rad etishni bildiradi.
- *Motivatsion yolg'on.* Suhbatdoshni ruhlantirish yoki uni ijobiy ruhda qo'llab-quvvatlash maqsadida haqiqatni bo'rttirib ifodalash: "Lo hiciste muy bien" ("Sen juda yaxshi bajarding").
- *Diplomatik ifoda.* Siyosiy va rasmiy muloqotlarda murosa qilish, kelishmovchiliklarni yumshatish yoki

mojaroni oldini olish maqsadida haqiqatning to'liq ifoda qilinmasligi.

- *Eufemizatsiya*. Salbiy holatni yumshoqroq va ijtimoiy qabul qilinadigan shaklda ifodalash: "Está en el cielo" ("U osmonda" – "vafot etdi" o'rniga).
- *Bilvosita ifoda*. Rad javobini yashirish yoki yumshatish: "Lo pensaré" ("Men o'ylab ko'raman"), "Tal vez" ("Balki").
- *Pozitiv baholash*. Suhbatdoshni qo'llab-quvvatlash uchun haqiqatni yumshatib yoki bo'rttirib ifodalash, shu orqali uning pozitiv "yuz"ini saqlash.
- *Mentira piadosa (oq yolg'on)*. Jamiyat tomonidan ijtimoiy maqbul hisoblangan, insoniylik yoki rahmdillik asosida qabul qilinadigan yolg'on shakli.

Shunday qilib, yolg'onning turli ko'rinishlari ispan tili materiallarida xushmuomalilik strategiyasining ajralmas qismi sifatida namoyon bo'lib, muloqot jarayonida ijtimoiy uyg'unlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, xushmuomalilik va yolg'on o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, ular kommunikativ jarayonda strategik ahamiyatga ega. Agar xushmuomalilik ko'proq suhbatdoshning "yuz"ini saqlashga qaratilgan bo'lsa, yolg'on ko'pincha shu strategiyaning ichki vositasi sifatida ishlatiladi.

Ispan tili misolida yolg'onning salbiy emas, balki ijtimoiy zarurat sifatida qabul qilinishi uning madaniy qadriyatlarga bog'liqligini tasdiqlaydi.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, xushmuomalilik va yolg'on fenomenlari sotsiologik tadqiqotlarda bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ikki asosiy kommunikativ strategiyadir. Xushmuomalilik nazariy jihatdan suhbatdoshning "yuz"ini saqlash, ijtimoiy uyg'unlikni ta'minlash va nutqiy muloqotda ijobiy muhit yaratishga xizmat qilsa, yolg'on ko'pincha shu maqsadlarni amalga oshirishda vosita sifatida namoyon bo'ladi. Demak, yolg'onning hamisha salbiy mazmun kasb etmasligi, balki ijtimoiy kontekstdan kelib chiqqan holda ijobiy vazifani

ham bajarishi mumkinligi ilmiy jihatdan tasdiqlanadi.

Ispan tili materiallari asosida olib borilgan kuzatuvlar bir necha muhim xulosalarga olib keladi:

- *Milliy-madaniy xususiyatlar* – Ispan madaniyatida keng tarqalgan "mentira piadosa" (oq yolg'on) fenomeni jamiyat tomonidan ijtimoiy maqbul deb hisoblanadi. Bu holat boshqa madaniyatlarda (masalan, anglo-sakson yoki sharqiy kontekstda) turlicha baholanishi mumkin, demak, yolg'on va xushmuomalilikning o'zaro aloqasi milliy-madaniy qadriyatlarga bog'liq.
- *Xushmuomalilik strategiyalarining ko'p qirraliligi* – Eufemizatsiya, bilvosita ifoda, yumshatish va ijobiy baholash kabi strategiyalar ko'pincha yolg'on elementlari bilan uyg'unlashadi. Bunda asosiy maqsad haqiqatni yashirish emas, balki ijtimoiy uyg'unlikni saqlash va mojaro oldini olishdir.
- *Suhbatdoshning "yuz"ini saqlash* – Nutqda yolg'on va xushmuomalilikning qo'llanishi bevosita suhbatdoshning obro'sini saqlash, uning hissiyotlarini hisobga olish va ijobiy muhit yaratish bilan bog'liqdir. Shu sababli yolg'on ko'pincha sotsiopsixologik himoya mexanizmi sifatida ishlaydi.
- *Pragmatik ahamiyat* – Yolg'on va xushmuomalilikning birgalikda qo'llanishi kommunikativ samaradorlikni oshiradi. Bu jarayon nutqiy aktlarni yanada moslashuvchan va ijtimoiy maqbul shaklga keltiradi.
- *Ilmiy va amaliy ahamiyat* – Ushbu hodisalarni o'rganish faqat tilshunoslik doirasida emas, balki psixologiya, madaniyatshunoslik, siyosatshunoslik va kommunikatsiya nazariyasi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ular odamlarning kundalik muloqotida, siyosiy nutqlarda, diplomatik suhbatlarda va hatto ommaviy axborot vositalarida faol qo'llaniladi.

Umuman olganda, yolg'on va xushmuomalilik sotsiolingvistik nuqtai nazardan o'zaro bog'liq bo'lib, ular jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, munosabatlarni saqlash va muloqotni ijobiy

yo'nalishga yo'naltirishda strategik vosita sifatida xizmat qiladi. Shu sababli kelgusida ushbu fenomenlarni kontrastiv tahlil qilish (turli tillar va madaniyatlarda) ilmiy jihatdan yanada kengroq natijalar beradi.

### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Bravo, D. (1999). "La estrategia de cortesía como recurso argumentativo en el discurso político español". *Revista Española de Lingüística Aplicada*, 12, 29–50.
2. Brown, P., Levinson, S. (1987). *Politeness: Some Universals in Language Usage*. Cambridge: Cambridge University Press.
3. Goffman, E. (1967). *Interaction Ritual: Essays on Face-to-Face Behavior*. New York: Anchor Books.
4. Grice, H. P. (1975). Logic and Conversation. In: Cole, P., Morgan, J. (eds.). *Syntax and Semantics, Vol. 3: Speech Acts*. New York: Academic Press.
5. Hernández Flores, N. (2002). *La cortesía en la conversación española de familiares y amigos*. Aalborg: Aalborg University Press.
6. Márquez Reiter, R. (2000). *Linguistic Politeness in Britain and Uruguay: A Contrastive Study of Requests and Apologies*. Amsterdam: John Benjamins.